

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster univesiteti talabalari tomonidan **“Milliy qadriyatlar va ularning millat ma’naviyatidagi o‘rni”** shiori ostida **“Davlat tili-o‘zbek tili”** mavzusida tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir  
**BAYONI**

**2025-yil 22 oktyabr**

**TXVU**

2025-yil 21 oktyabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida “Milliy qadriyatlar va ularning millat ma’naviyatidagi o‘rni” shiori ostida “Davlat tili-o‘zbek tili” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.



Tadbirimizni ochib berish uchun Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti Yoshlar masalalari va manaviy-marifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Nizomjon Kadirov taklif etildi. N.Kadirov barcha tadbir ishtirokchilarini bayram bilan tabrikladi. Tadbir Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti talabalarining chiroyli liboslar kolleksiyasini taqdim etish bilan boshlandi. Sundan so'ng tadbir dastur asosida davom etdi. O'tmishga qaytib, buyuk shoirlar, mutafakkirlar, davlat arboblari qalbiga nazar tashlagan holda o'zbek drama klubi vakillari "Navoiy merosi" va "Bobur qarori" spektakllarini namoyish etdilar!



"Ipak yo'li raqsi", "Shalola qo'shig'i" bayram dasturini yanada boyitdi. "Kitob klubi" a'zolarini tomonidan tayyorlangan mashxur asardan parcha namoyish etildi. Buxoro milliy raqsi iqtidorli qizlar ijrosida taqdim etildi. She'riyat ixlosmandlari mavzusini o'zbek tilimizga bo'lgan g'urur, go'zallik va chuqur muhabbatni aks ettiruvchi ta'sirchan she'rlari bilan o'rtoqlashdilar.

Tadbir mehmonlari sifatida O'zbekiston xalq artisti Erkin Komilov hamda taniqli san'atkor Gavhar Zokirova ishtirok etdilar. Ular o'z chiqishlarida o'zbek tilining xalqimiz ma'naviy hayotidagi o'rni, uni asrab-avaylash va yoshlar o'rtasida targ'ib etishning muhimligi haqida fikr bildirdilar.







Tadbirimizning eng qiziqarli qismi - Kitob viktorinasiga bo'lib, bunda kitob viktorinasini Book club lideri Diyora Tursunova olib bordi. Kim eng ziyrak kitobsevar ekanini bilib olish uchun 10 ta savol berildi va ularga javob bergan har bir talaba sovg'alarga ega bo'ldi. Tadbir davomida Kitob yarmarkasi bilan tanishishtirildi. Tadbirga Shahira Abdullayeva ijrosida "Vatanim" qo'shig'I yakun yasadi.





Mazkur tadbir yoshlar orasida milliy gʻurur, maʼnaviy yetuklik va oʻzbek tiliga hurmat ruhini mustahkamlashga xizmat qildi. Oʻzbekiston xalq artistlari va talabalar ishtiroki bilan oʻtgan ushbu uchrashuv orqali ona tilimizning millat maʼnaviyatidagi beqiyos oʻrni yana bir bor yoritildi.









Bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning muntazam o'tkazilishi talabalarni milliy qadriyatlarimizni asrashga, o'zbek tilining nufuzini yuksaltirishga, shuningdek, millatimizning boy madaniy merosidan faxrlanishga undaydi

**TXVU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori:**

**N. Kadirov**

**Universitet katta tyutori:**

**F.Ismagilova**